

TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Adxamova Komilabonu Ilxom qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

ORCID: 0009-0003-7530-0753

Saidov Mash'al Samadovich

ALFRAGANUS universiteti professori (DSc)

ORCID: 0009-0008-7814-3972

Аннотация

Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi ta'lim sohasini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan. Ta'lim tizimi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, shu sababli, ta'lim sohasidagi loyihalarga samarali investitsiyalar jalb qilish va ularni to'g'ri boshqarish zarur. Ishda ta'lim sohasidagi investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy va boshqaruv jihatidan rivojlantirish uchun takliflar keltirilgan. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar, shu jumladan moliyaviy resurslarni taqsimlash, loyihalarni rejalashtirish va monitoring qilish, shuningdek, bu loyihalarning qisqa va uzoq muddatli ta'lim tizimi uchun foydaliligini baholash masalalari muhokama qilindi. Ushbu muammolarni hal qilishda zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan, shu jumladan, jahon tajribasidan foydalanish zarurligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sohasi, investitsiya loyihalari, investitsion boshqaruv, samaradorlik, O'zbekistonda ta'lim, davlat-xususiy sheriklik, xususiy sektor, xalqaro grantlar, ta'lim infratuzilmasi, innovatsion texnologiyalar, ta'limni raqamlashtirish, xorijiy investitsiyalar, inson kapitali, ta'lim investitsiyalari, monitoring tizimi, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim iqtisodiyot, byurokratik to'siqlar, moliyaviy samaradorlik, hududiy tenglik

Аннотация

Основной целью данного научного исследования является совершенствование механизма управления инвестиционными проектами в сфере образования. Система образования играет важную роль в экономическом и социальном развитии страны, поэтому необходимо эффективно привлекать инвестиции в образовательные проекты и правильно управлять ими. В работе предлагаются рекомендации по повышению эффективности инвестиционных проектов в сфере образования, а также по их финансовому и управленческому развитию. Обсуждаются основные проблемы, возникающие в процессе управления инвестициями в образовательные проекты, такие как распределение финансовых ресурсов, планирование и мониторинг проектов, а также оценка краткосрочной и долгосрочной полезности этих проектов для образовательной системы. Подчеркивается необходимость использования современных управленческих механизмов, включая мировой опыт, для решения этих проблем.

Ключевые слова: сфера образования, инвестиционные проекты, инвестиционное управление, эффективность, образование в Узбекистане, госкорпорации и частные партнерства, частный сектор, международные гранты, инфраструктура образования, инновационные технологии, цифровизация образования, иностранные инвестиции, человеческий капитал, инвестиции в образование, система мониторинга, повышение качества образования, экономика образования, бюрократические барьер, финансовая эффективность, территориальное равенство.

Abstract

This research aims to enhance the management mechanisms of investment projects in the education sector. The education system plays a vital role in the economic and social progress of a nation, making it essential to attract and effectively manage investments in educational initiatives. The paper offers recommendations for improving the effectiveness of education-related investment projects, focusing on both financial and managerial aspects. It examines the main challenges faced in managing educational investments, such as resource allocation, project planning, and monitoring, while also evaluating the long-term and short-term benefits these projects bring to the education system. The study highlights the importance of adopting modern management approaches and leveraging global experiences to solve these challenges.

Keywords: education sector, investment projects, investment management, efficiency, education in Uzbekistan, public-private partnerships, private sector, international funding, education infrastructure, innovative technologies, digitalization in education, foreign investments, human capital, education investments, monitoring system, quality improvement in education, educational economics, bureaucratic barriers, financial effectiveness, regional equality.

KIRISH

Ta'lim sohasi har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Jamiyat taraqqiyoti va innovatsiyalarning joriy etilishi ta'lim sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, bilimli va malakasini muntazam oshirib boruvchi kadrlar tayyorlash, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ta'lim sohasiga investitsiya kiritish va ushbu investitsion loyihalarni samarali boshqarish hozirgi global iqtisodiyotda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun turli xil investitsiya manbalari mavjud bo'lib, ular davlat byudjeti, xususiy sektor sarmoyalari, xalqaro grantlar va kreditlar orqali shakllanadi. Ammo bu mablag'larni samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish tizimi mavjud kamchiliklar tufayli yetarlicha samaradorlikka erisholmayapti. Shu sababli, investitsion loyihalarni rejalashtirish, boshqarish va ularning natijaviyligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatga aylanmoqda.

Ta'lim sohasini rivojlantirishga investitsiya kiritish nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global miqyosda ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, ta'limga yo'naltirilgan sarmoyalar har bir mamlakatning

iqtisodiy o‘shishiga va aholining turmush sifati oshishiga xizmat qiladi. Jahon banki tadqiqotlariga asosan, ta’lim sohasiga investitsiya kiritish mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi, innovatsiyalar joriy etilishiga ko‘maklashadi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar, xalqaro grantlar va xususiy sektor sarmoyalari yordamida ta’lim muassasalari modernizatsiya qilinmoqda, yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Biroq, mavjud investitsion loyihalarni samarali boshqarish uchun ularning to‘g‘ri rejalashtirilishi, monitoring va baholash tizimlarining takomillashtirilishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida[1]:

- Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish.

- Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish.

- Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish.

- Oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

- Oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash.

- Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

- Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsait, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish.

Ta’lim sohasida investitsiyalarning samaradorligini ta’minlash uchun moliyaviy mablag‘larning maqsadli va samarali taqsimlanishi, xarajatlarning shaffofligi va natijaviylikni baholash tizimlarining takomillashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, investitsiyalarning ta'lim sifatini oshirishga bevosita ta'sirini baholash va ularning natijalarini uzoq muddatli davr mobaynida tahlil qilish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sohasini investitsiyalash va uning samaradorligini oshirish bo'yicha jahon va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu borada xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borilgan. Jumladan:

Yozef Shumpeter tomonidan o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida ta'lim sohasiga innovatsiyalar va investitsiyalar kiritish iqtisodiy o'sishga turtki berishi mumkinligini ta'kidlaydi.[2] Biroq, uning nazariyasida davlat rolining yetarli darajada yoritilmaganligi tanqid qilinadi.

Gari Bekker ham o'zining ilmiy izlanishlarida, "Inson kapitali" nazariyasida ta'limga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, yuqori malakali kadrlar iqtisodiy o'sishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bergan.[3] Biroq, uning modellari asosan rivojlangan mamlakatlar uchun mos keladi va rivojlanayotgan davlatlardagi mavjud ijtimoiy muammolarni to'liq hisobga olmaydi.

Robert Solovey tomonidan o'zining iqtisodiy o'sish modellarida ta'limning iqtisodiy o'sishdagi roli va uning investitsion jihatlari ta'riflab bergan.[4] Uning nazariyasida ta'limga sarmoya kiritish iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli omillaridan biri sifatida ko'riladi, ammo amaliyotda ta'lim investitsiyalarining natijalari doimo barqaror emasligi ma'lum.

Erik Xanusek va Lyudvig Vuossmanlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida, ta'limning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tadqiq qilib, ta'lim sifatini oshirishning iqtisodiy samaradorlikka olib keluvchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlagan.[5] Ular ta'lim jarayonida davlat siyosatining muhimligini urg'ulagan, lekin ta'limga xususiy sektorning ta'siri haqida kamroq to'xtalgan.

YUNESKO tashkilotining olib borilgan tadqiqot hisobotlarida ta'limga investitsiya kiritish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkinligi va moliyaviy ta'minotning ustuvorligi muhim ekanligi ko'rsatilgan.[6] Biroq, ushbu hisobotlar aniq amaliy mexanizmlardan ko'ra umumiy tavsiyalarga ko'proq asoslangan.

Ta'lim sohasini rivojlantirishda investitsion loyihalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish borasida mahalliy olimlarining tadqiqotlari ham o'rganib chiqildi. Ular tomonidan quyidagicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

I. Abdurahmonov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda, ta'lim tizimini moliyalashtirishda xususiy-davlat sheriklik modellarining samaradorligini o'rgangan.[7] Biroq, uning tadqiqotida xususiy sektorning ta'limga kirishini cheklovchi huquqiy omillar to'liq yoritilmagan.

U. To'xtamuratov esa o'zining ilmiy tadqiqotlarida, ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini tahlil qilgan. [8] Uning ishida xorijiy sarmoyadorlar uchun O'zbekistondagi biznes muhiti va byurokratiya bilan bog'liq muammolar yetarlicha ochib berilmagan.

Sh. Isomov o'rganishlari natijasida, ta'lim sohasidagi investitsiyalarning samaradorligini baholash metodologiyasini taklif qilgan. [9] Ammo uning tadqiqotida ta'lim muassasalaridagi amaliy natijalar bilan bog'liq empirik dalillar kam yoritilgan.

Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, ularni amaliy tatbiq etish ta'lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq, mavjud tadqiqotlarni tahlil qilganda, aksariyat ishlarda ta'limga investitsiya kiritishning uzoq muddatli natijalari va uning qaytarilishi borasida aniq mexanizmlar taklif etilmaganligi ko'rinadi. Shu bois, ta'lim investitsiyalarini baholashda keng qamrovli va dinamik modellar ishlab chiqish zarur.

Singapur ta'limi mintaqadagi eng istiqbolli va barqaror sarmoyaviy imkoniyatlardan birini mahalliy va xorijiy jabhalarda taklif etadigan davlatlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosidagi obro'-e'tibor, innovatsiyalarga bo'lgan tashabbus va ilg'or me'yoriy-huquqiy bazaga ega bo'lgan mamlakat investorlar va o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan ta'lim muassasalari uchun qulay zamin yaratadi. So'nggi yillarda Singapurning ta'lim sektoriga investitsiyalar hukumat tashabbuslari va xususiy sektor ishtiroki tufayli keskin o'sishga erishdi.

Singapur hukumati 2024-yilda 14,8 milliard Singapur AQSH dollari miqdorida byudjet ajratgan holda ta'limga doimiy ravishda ustuvor ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu investitsiya darajasi hukumatning innovatsiyalar va global tendensiyalarga moslashishni rag'batlantirish bilan birga ta'lim sohasida yuqori standartlarni saqlash majburiyatini aks ettiradi.

Singapurning ta'lim sektoriga sarmoya kiritilishining yana bir asosiy omili texnologiya va raqamli transformatsiyaning ortib borayotgan rolidir. Ta'lim tizimlari global miqyosda texnologiyaga asoslangan ta'limga yo'naltirilganligi sababli, Singapur EdTech innovatsiyalari uchun markaz sifatida gavydalanmoqda. GenieBook kabi kompaniyalar o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim tajribasini yaratish, ta'lim natijalarini yaxshilaydigan, kengaytirilgan yechimlarni taqdim etish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Bunday innovatsiyalar, shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan o'quv vositalari, virtual sinflar va boshqa raqamli platformalar kabi texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanishga intilayotgan investorlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Bundan tashqari, ta'lim texnologiyalariga bo'lgan talab hukumatning Singapurni "Aqlli millat" ga aylantirishga intilishi bilan yanada kuchaymoqda. Ushbu maqsad sun'iy intellekt, mashinani o'rganish va ma'lumotlar tahlili kabi ilg'or texnologiyalarni ta'limga integratsiyalashuviga mos keladi, bu ham o'quv jarayonini, ham institutsional samaradorlikni oshiradi. EdTech sarmoyadorlari global miqyosda potensialga ega tez rivojlanayotgan bozorda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Singapur hukumati boshqa mamlakatlar bilan ta'lim sohasida muntazam ravishda hamkorlik qilib keladi. Bu esa Singapur maktablari va universitetlaridagi o'quvchi-talabalarning dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda loyihalar olib borishiga zamin yaratadi. 2022-yil aprel oyida Singapurda dunyoning turli burchaklaridan kelgan 65 000 ga yaqin xalqaro talabalar ta'lim olishi qayd

qilingan (The Business Times, 2022). Chet ellik talabalarning oqimi, ayniqsa, xususiy ta'lim muassasalari (PEI), xalqaro maktablar va universitetlarda ta'lim xizmatlariga yuqori talabning shakllanishiga hissa qo'shadi. Mamlakat ta'lim tizimi jahon bandlik bozorlariga mos kelishi, bitiruvchilarning ish kuchiga puxta tayyorlanishini ta'minlashi bilan mashhurdir. Hukumat mahalliy va xalqaro institutlar o'rtasidagi hamkorlik orqali global hamkorlikni rag'batlantirishda davom etmoqda, qo'shma o'quv dasturlari va tadqiqot imkoniyatlarini taklif qilmoqda. [10] Ushbu hamkorlik muhiti texnologik infratuzilma va ta'lim muassasalari kabi sohalarga doimiy investitsiya oqimini kengaytirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda investitsion loyihalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirishni ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun O'zbekiston Respublikasidagi so'nggi yillardagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Quyida 2024-yildagi ta'lim investitsiyalarining umumiy hajmi va ularning taqsimoti jadvallar asosida ko'rsatilgan.

1-jadval

Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar va mavjud muammolar¹

Yillar	Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar (mlrd so'm)	Xususiy investitsiyalar (mlrd so'm)	Xalqaro grantlar (mlrd so'm)	Muammolar
2022	12 500	3 200	1 500	Xususiy sektor kam ishtiroki
2023	14 800	3 900	1 800	Byurokratik to'siqlar
2024	16 200	4 500	2 200	Xorijiy investitsiya jalb kam

Izoh:

1. 2022-yil:

- Davlat byudjeti: 12 500 mlrd so'm ajratilgan, bu yildan boshlab ta'lim sohasidagi investitsiyalar sezilarli darajada oshirilgan.
- Xususiy investitsiyalar: 3 200 mlrd so'm. Xususiy sektorning ta'limga bo'lgan qiziqishi hamda investitsiya yo'naltirish darajasi nisbatan past bo'lgan.
- Xalqaro grantlar: 1 500 mlrd so'm. Xalqaro hamkorlik va grantlar darajasi o'rtacha bo'lib, ta'lim tizimiga qo'shimcha qo'llab-quvvatlash ko'rsatgan.

¹ Muallif ishlanmasi

- Muammolar: Xususiy sektorning ta'lim sohasiga kam ishtirok etishi bu yilning asosiy muammosi bo'lgan.

2. 2023-yil:

- Davlat byudjeti: 14 800 mlrd so'm ajratilgan, bu yilda ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar yana ko'paygan.

- Xususiy investitsiyalar: 3 900 mlrd so'm. Xususiy sektorning ishtiroki bir oz oshgan, ammo hali ham kam.

- Xalqaro grantlar: 1 800 mlrd so'm. Xalqaro grantlar va yordamlar o'rtacha darajada saqlanib qolgan.

- Muammolar: Byurokratik to'siqlar ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarni samarali yo'naltirishni qiyinlashtirgan. Bu, o'z navbatida, investitsiyalarning ishonchli va tezroq taqdim etilishiga to'sqinlik qilgan.

3. 2024-yil:

- Davlat byudjeti: 16 200 mlrd so'm ajratilgan, bu yil davomida ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar yanada oshgan.

- Xususiy investitsiyalar: 4 500 mlrd so'm. Xususiy sektorning ishtiroki o'rtacha oshgan, ammo hali ham ta'lim tizimiga yetarli darajada ko'p investitsiyalar yo'naltirilmagan.

- Xalqaro grantlar: 2 200 mlrd so'm. Xalqaro grantlar darajasi ham oshgan, bu esa ta'lim sohasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirgan.

- Muammolar: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud. Bu ta'lim tizimining global miqyosda o'sishiga va rivojlanishiga xalaqit berishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ayrim muammolar aniqlandi va ular bo'yicha ayrim takliflar ishlab chiqildi.

1. Ta'lim sohasida xususiy sektor ishtiroki pastligi — investorlar uchun soliq imtiyozlarini yaratish, xususiy-davlat sheriklik modellarini kengaytirish.

2. Ta'lim sohasida zamonaviy islohotlarni olib borishda byurokratik to'siqlarning mavjudligi — investitsiya jarayonlarini soddalashtirish va raqamli xizmatlarni joriy etish.

3. Ta'lim sohasida xorijiy investitsiyalarning jalb qilish miqdorining kamligi — xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va infratuzilmani yaxshilash.

4. Inson kapitalining yetarli darajada rivojlanmaganligi – yuqori malakaga ega kadrlarni ishga olish va jahon tajribasi bilan hamnafas holda ish yuritish.

5. Zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi - zamonaviy texnologiyalar ta'lim loyihalarining monitoring tizimlarini avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va tahliliy dasturlardan foydalanish orqali moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va onlayn platformalar orqali loyihalarning real vaqt rejimidagi natijalarini kuzatishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish, mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi mustahkam va barqaror rivojlanishi uchun investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli

amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Buning uchun quyidagi asosiy strategiyalarni amalga oshirish lozim:

6. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash: Ta'lim infratuzilmasiga sarmoyalarni ko'paytirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shu maqsadda davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini rivojlantirish va ta'lim sohasidagi xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish kerak.

7. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun huquqiy muhitni yaxshilash: Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish uchun ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlash va sarmoya kiritish uchun sharoit yaratish zarur. Bu esa ta'lim sohasiga qiziqish va investitsiyalarni ko'paytiradi.

8. Raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish: Ta'limni raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali investitsiyalarning samaradorligini oshirish mumkin. Bu, shuningdek, ta'lim tizimining sifatini yaxshilash va yangi imkoniyatlar yaratish imkonini beradi.

9. Soliq imtiyozlari orqali xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish: Xususiy sektorni ta'lim sohasiga jalb qilish uchun soliqlarda imtiyozlar taqdim etish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va boshqa rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir.

10. Shaffoflik va monitoring tizimini kuchaytirish: Investitsiyalarning samarali taqsimlanishini ta'minlash va loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini nazorat qilish uchun monitoring tizimlarini takomillashtirish zarur. Bu investitsiyalarning shaffof va samarali boshqarilishini kafolatlaydi.

11. Hududiy tenglikni ta'minlash: Ta'lim investitsiyalarini mamlakat bo'ylab teng taqsimlash va hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish lozim. Bu, ta'lim imkoniyatlarini barcha hududlarga teng taqsimlashni ta'minlash orqali amalga oshirilishi kerak.

Agar yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ta'lim sohasining investitsion jozibadorligi yanada oshadi. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga, ta'lim infratuzilmasining rivojlanishiga, yangi avlodning bilim va ko'nikmalarini oshirishga, shuningdek, mamlakatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda, ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va samarali boshqarish, nafaqat ta'lim tizimining yaxshilanishini, balki davlatning umumiy barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yil PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida",gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4545884>

2. Schumpeter, J. A. (1942). *Capitalism, Socialism, and Democracy*. Harper & Brothers.

3. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. University of Chicago Press.

4. Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth." *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65-94.
5. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2012). *The Knowledge Capital of Nations: Education and the Economics of Growth*. MIT Press.
6. UNESCO (2021). *Global Education Monitoring Report*. Retrieved from www.unesco.org
7. Abdurahmonov I. (2019). "Ta'lim tizimini moliyalashtirishda xususiy-davlat sheriklik modellari." *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, 4(2), 45-58.
8. To'xtamuratov U. (2020). "Ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati." *O'zbekiston iqtisodiyoti tahlillari*, 3(1), 22-37.
9. Isomov Sh. (2021). "Ta'lim investitsiyalari samaradorligini baholash metodologiyasi." *Iqtisodiy tahlil va prognozlashtirish*, 5(3), 14-29.
10. *Maximizing Potential: Investment in Singapore's Education Sector*.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**